

**O‘ZBEKISTON – 2030: TA’LIM, FAN SOHASIDAGI ISLOHOTLARNING
YOSHLAR MA’NAVIY SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ROLI**

Baxodirova Madinaxon Ravshanjon qizi

*Qo‘qon Davlat Universiteti Ijtimoiy va gumanitar fanlarni o‘qitish (ma‘naviyat
asoslari) yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

Tel: 90-509-05-58

Email: baxodirovamadinaxon7@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta‘lim va fan sohalarida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yosh avlod ma‘naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqotda ta‘lim sifatini oshirish va ilm-fanni rivojlantirish orqali yoshlarda ma‘naviy immunitetni mustahkamlash, ularning intellektual salohiyatini milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, Yangi O‘zbekiston poydevorini qurishda jadidlar merosi va zamonaviy ta‘lim modellarining o‘rni ilmiy asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar

O‘zbekiston – 2030 strategiyasi, ma‘naviy salohiyat, ta‘lim islohotlari, ilm-fan, yoshlar tarbiyasi, Uchinchi Renessans, ma‘naviy immunitet.

Аннотация

В данной статье анализируется значение коренных реформ, проводимых в сферах образования и науки в рамках стратегии “Узбекистан – 2030”, в формировании духовно-нравственного облика молодого поколения. В исследовании освещены вопросы укрепления духовного иммунитета молодежи через повышение качества образования и развитие науки, гармонизации их интеллектуального потенциала с национальными ценностями. Также научно обоснована роль наследия джадидов и современных образовательных моделей в строительстве фундамента Нового Узбекистана.

Ключевые слова

стратегия “Узбекистан – 2030”, духовный потенциал, реформы образования, наука, воспитание молодежи, Третий Ренессанс, духовный иммунитет.

Abstract

This article analyzes the significance of fundamental reforms carried out in the fields of education and science within the framework of the “Uzbekistan – 2030” strategy in shaping the spiritual and moral image of the younger generation. The study highlights the issues of strengthening the spiritual immunity of youth by improving the

quality of education and developing science, as well as harmonizing their intellectual potential with national values. Furthermore, the role of the Jadids' heritage and modern educational models in building the foundation of the New Uzbekistan is scientifically grounded.

Keywords

Uzbekistan – 2030 strategy, spiritual potential, educational reforms, science, youth education, Third Renaissance, spiritual immunity.

Bugungi globallashuv va shiddatli texnologik taraqqiyot davrida milliy o'zlikni anglash hamda ma'naviy barqarorlikni saqlash har bir davlatning ustuvor vazifasiga aylandi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasining tub zamirida "Inson qadri va xalq manfaati" g'oyasi yotar ekan, bunda yoshlarning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish bevosita sifatli ta'lim va ilg'or fan bilan bog'liqdir. Ma'naviyat va ilm-fan uyg'unligi Yangi O'zbekiston sivilizatsiyasining — Uchinchi Renessansning poydevori hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganlaridek, "Yangi O'zbekiston sharoitida amalga oshirilayotgan islohotlarning strategik maqsadi — yoshlarning intellektual salohiyatini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirgan holda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdir."¹

Darhaqiqat, O'zbekistonda Uchinchi Renessansga poydevor bo'lgan ta'lim tizimidagi amalga oshirilayotgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda yurtimizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, mamlakatimiz yoshlarini har jihatdan ma'naviy barkamol insonlar etib tarbiyalash, yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlashni tubdan yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ta'lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularni ma'naviy barkamol, vatanparvar va raqobatbardosh kadrlar etib tarbiyalashda fundamental rol o'ynaydi. Strategiya yoshlarning ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, axloqiy-estetik ideallarini shakllantirish va ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishga qaratilgan.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida ta'lim tizimini tubdan isloh qilishning asosiy maqsadi nafaqat raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, balki yuksak axloqiy fazilatlarga ega shaxsni tarbiyalashdir."²

Ma'lum qilinishicha, mamlakatda maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan barcha ta'lim bosqichlarida sifat va samaradorlikni oshirish, bilim darajasini xalqaro standartlar asosida mustahkamlash uchun kompleks choralar belgilangan. Bu yo'nalishlar, jumladan, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – B. 245.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y

oshirish, umumiy oʻrta taʼlim muassasalari infratuzilmasini yangi bosqichga koʻtarish va oliy taʼlim tizimini zamonaviy darajaga muvofiqlashtirishni oʻz ichiga oladi.

Anjumanda taʼkidlanishicha, strategiya doirasidagi ustuvor vazifalar orasida:

Maktabgacha taʼlim bilan qamrab olishni yanada kengaytirish;

Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarini 100 % toza ichimlik suvi va zamonaviy sanitariya-gigiyena sharoiti bilan taʼminlash;

Taʼlim muassasalariga har yili 600 nafargacha xorijiy tillar va innovatsion fanlar boʻyicha mutaxassislarni jalb qilish;

Pedagogik yoʻnalishlarda davlat granti bilan tayyorlangan kadrlar ulushini oshirish ishlari ham borligi taʼkidlandi.

Maktabgacha taʼlimdan oliy taʼlimgacha boʻlgan bosqichlarda milliy qadriyatlar va zamonaviy fan yutuqlari integratsiya qilinmoqda. Bu jarayonda yoshlarning mustaqil fikrlashi va maʼnaviy immuniteti shakllanmoqda.

Taʼlim jarayoniga raqamli texnologiyalarda esa yangi metodikalarning (masalan, Bloom taksonomiyasi, STEAM yondashuvi) joriy etilishi yoshlarda mantiqiy tahlil va ijodiy yondashuvni rivojlantirib, ularni turli yot gʻoyalarga nisbatan tanqidiy nigoz bilan qarashga oʻrgatmoqda.

J.G. Yoʻldoshevning fikricha “Bugungi kunda taʼlim jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali yoshlarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning ijtimoiy-axloqiy masʼuliyatini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.”³

Ilm-fanning rivoji esa jamiyatning maʼnaviy-ruhiy holatiga bevosita taʼsir koʻrsatadi. Strategiyada belgilangan yosh olimlarni qoʻllab-quvvatlash tizimi bilan ahamiyatlidir. Bunda fan bilan shugʻullangan yoshlarda haqiqatga sadoqat, sabr-toqat va mantiqiy izchillik kabi maʼnaviy sifatlar shakllanadi.

Bugungi kunda ilm-fan sohasidagi islohotlar jadidlar tomonidan ilgari surilgan “dunyoga ilm bilan chiqish” gʻoyasining mantiqiy davomidir. Yosh professor va tadqiqotchilar oʻz izlanishlarida milliy manfaatlar va umuminsoniy qadriyatlarni uygʻunlashtirmoqdalar.

Taraqqiyotimiz dasturi boʻlmish “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida taʼlim tizimini yanada rivojlantirish boʻyicha yangi maqsad va rejalar belgilab olindi. Mazkur hujjatda bolalarni maktabgacha taʼlim va tayyorlov guruhlarini bilan toʻliq qamrab olish, oʻlis va chekka hududlarda joylashgan 715 ta umumiy oʻrta taʼlim muassasalari oʻquvchilari uchun bepul avtobuslarni yoʻlga qoʻyish, yoshlarni oliy taʼlim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish, umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarini oliy maʼlumotli pedagog kadrlar bilan toʻliq taʼminlash, oliy taʼlim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish kabi maqsadlar ilgari surilgan.

³ J.G. Yoʻldoshev. Yangi pedagogik texnologiyalar: yoʻnalishlari, muammolari, yechimlari. – Toshkent: "Oʻqituvchi", 1999. – B. 45.

Ta'lim-tarbiyaning boshlang'ich bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimidagi o'zgarishlardan barchamiz yaxshi xabardormiz. Oxirgi yetti yilda maktabgacha ta'lim bo'yicha qamrov darajasini 27 foizdan 72 foizga, oliy ta'limda esa 9 foizdan 42 foizga, oliygohlar soni 77 tadan 212 taga yetkazildi.

Strategiyada yoshlar bandligini ta'minlash va tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, sifatli va inklyuziv ta'limni rivojlantirish, xorijiy tillarni ommalashtirish va kasbiy ta'limni kengaytirish, mehnat bozorini rag'batlantirish hamda yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, madaniy, jismoniy va ma'rifiy rivojlanishni kuchaytirish, volontyorlik harakatini keng yoyish, yoshlar salomatligini mustahkamlash, shuningdek, ochiqlik va ishtirok mexanizmlarini kengaytirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilangan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida ta'lim va fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar shunchaki tizimli yangilanish emas, balki millatning ma'naviy qiyofasini tubdan o'zgartirishga xizmat qiluvchi strategik jarayondir. Zamonaviy ta'lim standartlarining joriy etilishi yoshlarning nafaqat intellektual salohiyatini oshiradi, balki ularda milliy qadriyatlarga asoslangan mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantiradi. Bu esa globallashuv sharoitida yoshlarni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilishning eng samarali yo'lidir. Ta'lim va fanga tikilayotgan sarmoya — bu inson kapitaliga va millatning ma'naviy kelajagiga tikilgan sarmoyadir. Strategiyada belgilangan maqsadlarning hayotga tadbiq etilishi Yangi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini va intellektual salohiyatli yoshlar qatlamining shakllanishini kafolatlaydi.

Umuman olganda, ta'lim va fan islohotlari yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning asosi bo'lib, bu jarayon mamlakatning barqaror rivojlanishi va milliy yuksalishining bosh omili bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida, PF-158-son, 11.09.2023-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021.
3. Alimova D.A. Jadidchilik fenomeni. – T.: "Akademnashr", 2022.
4. Yo'ldoshev J.G'. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: "O'qituvchi", 1999.